Derivation and Nominalization in Medical Terminology: A Comparative Model of Term and Process Name Formation in English and Uzbek	523
<i>Gulnigor Yazdonkulova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq buzilishlarida pedagogik-psixologik korreksiya usullari hamda mexanizmlari.....	526
<i>Jo'rayeva Muattar Abdumajit qizi</i>	
Ta'lim sifatini boshqarishga tizimli yondashish hamda pedagogikada PDCA modelining ahamiyati	530
<i>Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna, Xolmatova Maftuna Turdimat qizi</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalarining kimyo ta'limidagi o'rni.....	535
<i>Jumaniyazova Mahliyo Qahramonovna</i>	
Inklyuziv maktab sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-perseptiv tajribani shakllantirish ...	539
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna</i>	
Sirdaryo viloyati toponimlarining shakllanish jarayonlari	543
<i>Kenjayeva Iroda Alisherovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda art texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari.....	546
<i>Mamatova Husnora Eshquvatovna</i>	
O'quvchi yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish va uni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash.....	550
<i>Mehmonova Nilufar Shuhratovna</i>	
Integrating Social-Emotional Learning in EFL Classrooms: Enhancing Language Proficiency and Emotional Intelligence.....	553
<i>Meylinorova Feruza Bakhtiyor qizi</i>	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilarining malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish	559
<i>Muminova Nargiza Sabitdjanovna</i>	
TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi	562
<i>Murodova Sarvigul Raxim qizi</i>	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirishning funksional modeli	566
<i>Norboyeva Moxigul Shavkat qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish	569
<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfida o'qitiladigan "Tabiiy fanlar"dan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	574
<i>Qo'qonboyeva Shaxlo Rafikjonovna</i>	
The Intersection of Science and Pedagogy: The Teacher's Role in Professional Evolution	580
<i>Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Shukurova Madina</i>	
Maktabgacha katta guruhlarida STEAM texnologiyasi bilan tanishtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	583
<i>Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	586
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Kurashchilarda muvozanat (balance) va ko'tarib uloqtirish texnikasi o'rtasidagi bog'liqlik	590
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
O'qituvchi shaxsining o'zini o'zi rivojlantirishida akmeologik pozitsiyaning o'rni.....	594
<i>Xaitov Abdusolim Abdulkim o'g'li</i>	
Lego-qurilish, konstruksiyalash, robototexnika – STEAM ta'lim moduli sifatida	596
<i>Xamroyeva Sitara Samadovna</i>	



Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	599
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'limiy o'yinlarni loyihalash va joriy etish	602
<i>Xikmatova Moxinur Amir qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish usullari	605
<i>Xolmo'minova Mohichehra Bahrom qizi</i>	
O'quvchilarning biologiyaga qiziqishini oshirishda innovatsion ta'lim metodlari	609
<i>Xudayberganova Madina Saotboy qizi, Abdiqodirov Murodxo'ja Alisher o'g'li, Nishanbayeva Arayim User qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi voleybolchi qizlarning musobaqa oldi jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	612
<i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>	
Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari	618
<i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>	
Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi	621
<i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>	
Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati	625
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>	
Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан	628
<i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>	
Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста	631
<i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>	
Подготовка детей-билинггов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA 7-SINF BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA VIRTUAL LABORATORIYALARDAN FOYDALANISHNING TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Turakulova Mehriniso Nuriddinovna

Samarqand davlat universiteti, tayanch doktorant

Ruziqulova Nilufar Abdumajidovna

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti, dotsent

Allanzarova Natalya Aleuatdinovna

Samarqand davlat universiteti, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida 7-sinf biologiya fanini o'qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanishning ta'lim samaradorligiga ta'siri tadqiq etilgan. Tadqiqot umumta'lim maktabi sharoitida tashkil etilib, o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash maqsadida pre-test va post-test metodlaridan foydalanilgan. Tajriba jarayonida biologiya fanining laboratoriya mashg'ulotlari virtual laboratoriyalar asosida tashkil etilib, an'anaviy ta'lim usullari bilan qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari virtual laboratoriyalardan foydalanish o'quvchilarning biologiya faniga bo'lgan qiziqishini oshirishi, mavzularni chuqurroq o'zlashtirishiga hamda bilim ko'rsatkichlarining sezilarli darajada yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqladi. Olingan natijalar virtual laboratoriyalarni biologiya fanini o'qitish jarayoniga keng joriy etish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi. Mazkur maqola biologiya o'qituvchilari, metodistlar hamda ta'lim sohasidagi ilmiy tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: virtual laboratoriya, biologiya ta'limi, 7-sinf, ta'lim samaradorligi, raqamli ta'lim, pre-test va post-test, innovatsion metodlar.

Abstract: This article examines the impact of using virtual laboratories on the effectiveness of teaching biology in Grade 7 of general secondary schools. The study was conducted in a general school setting, employing pre-test and post-test methods to assess students' knowledge levels. During the experimental phase, biology laboratory lessons were organized using virtual laboratories and compared with traditional teaching approaches. The research findings indicate that the use of virtual laboratories enhances students' interest in biology, promotes deeper understanding of the subject matter, and leads to a significant improvement in learning outcomes. The results confirm the feasibility and effectiveness of integrating virtual laboratories into the biology teaching process. The article is of practical significance for biology teachers, methodologists, and researchers in the field of education.

Key words: virtual laboratory, biology education, Grade 7, learning effectiveness, digital education, pre-test and post-test, innovative methods.

Аннотация: В данной статье исследуется влияние использования виртуальных лабораторий на эффективность обучения биологии в 7-х классах общеобразовательных школ. Исследование было организовано в условиях общеобразовательной школы, при этом для определения уровня знаний учащихся применялись методы pre-test и post-test. В ходе эксперимента лабораторные занятия по биологии проводились на основе виртуальных лабораторий и сопоставлялись с традиционными методами обучения. Результаты исследования показали, что использование виртуальных лабораторий способствует повышению интереса учащихся к предмету биологии, более глубокому усвоению учебного материала, а также значительному улучшению показателей знаний. Полученные результаты подтверждают целесообразность широкого внедрения виртуальных лабораторий в процесс преподавания биологии. Материалы статьи представляют практическую ценность для учителей биологии, методистов и исследователей в сфере образования.

Ключевые слова: виртуальная лаборатория, биологическое образование, 7-й класс, эффективность обучения, цифровое образование, pre-test и post-test, инновационные методы.



KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda ularni o'quv jarayoniga samarali integratsiya qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, umumta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitishda an'anaviy laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda moddiy-texnik bazaning yetishmasligi, vaqt va xavfsizlik bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lib, bu holat o'quvchilarning amaliy bilim va ko'nikmalarini to'liq shakllantirishga to'sqinlik qilmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etishda virtual laboratoriyalar muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Virtual laboratoriyalar o'quvchilarga biologik jarayon va hodisalarni interaktiv muhitda kuzatish, tajribalarni xavfsiz va takroriy bajarish hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, virtual laboratoriyalardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, fanlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi biologiya fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlarni qo'llashni taqozo etmoqda. Xususan, virtual laboratoriyalar (VL) o'quvchilarni biologik jarayonlar va hodisalarni xavfsiz, vizual hamda interaktiv shaklda o'rganish imkoniyati bilan ta'minlaydi.

Makranskiy va Mayerlarning ^[3] tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, virtual laboratoriyalarning joriy etilishi nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtiradi, balki o'quvchilarda fan bo'yicha qiziqishni oshiradi hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Qiziqishni oshirish masalasida ko'plab olimlar virtual laboratoriyalarni biologiya fanini o'qitishda muhim motivatsion omil sifatida ta'riflaydilar. Jumladan, Zacharia va Olympioularning ^[6] tadqiqotlarida o'quvchilar real laboratoriya sharoitida amalga oshirilishi qiyin bo'lgan tajribalarni virtual laboratoriyalar yordamida bajarish jarayonida fan bilan faolroq shug'ullanishlari aniqlangan.

Bundan tashqari, Byukusenge va boshqalarning ^[2] ta'kidlashicha, virtual laboratoriyalar o'quvchilarning motivatsiyasini, o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini hamda biologiya mavzularini o'rganishga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi.

Azizah va Aloysiuslarning ^[1] fikriga ko'ra, biologiyani o'rganishda ta'lim darajasi va virtual laboratoriya vositalari o'rtasidagi bog'liqlik, o'quvchilar tomonidan maksimal ta'lim maqsadlariga erishishda foydalaniladigan virtual laboratoriya vositalarining mosligi bilan bevosita bog'liqdir.

Mafor Penn va Lydia Mavurular ^[4] esa an'anaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirilgan virtual ta'limning texnologik imkoniyatlari o'quvchilarning hayot haqidagi fanlar bo'yicha tushunchalari hamda kontseptual bilimlarini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar.

Mazkur tadqiqotning maqsadi 7-sinf biologiya fanini o'qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanishning ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilandi:

- biologiya fanida virtual laboratoriyalardan foydalanishning nazariy asoslarini tahlil qilish;
- virtual laboratoriyalar asosida tashkil etilgan darslarning o'quvchilar bilim darajasiga ta'sirini aniqlash;
- pre-test va post-test natijalari asosida tajriba va nazorat guruhlarini o'rtasidagi farqlarni solishtirish hamda olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar chiqarish.

So'nggi yillarda ta'lim jarayonida virtual laboratoriyalardan foydalanish masalasi xalqaro miqyosda keng o'rganilmoqda. Azizah va Aloysius tomonidan 2021-yilda olib borilgan tadqiqotlarda virtual laboratoriyalar biologiya fanida o'quvchilarning bilim natijalarini yaxshilashda muhim pedagogik vosita ekani asoslab berilgan. Mualliflar virtual muhitda tajribalarni takroriy va xavfsiz bajarish imkoniyati o'quvchilarning tushunish darajasini oshirishini ta'kidlaydilar. Shuningdek, virtual laboratoriyalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lashda samarali yechim sifatida baholanadi.

Virtual laboratoriyalarning samaradorligi masalasi Byukusenge, Nsanganwimana va Tarmo tomonidan 2022-yilda chop etilgan adabiyotlar sharhida ham keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotda biologiya fanini o'qitishda virtual laboratoriyalar o'quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va fan bo'yicha qiziqishini oshirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Makranskiy va Mayer tomonidan 2022-yilda amalga oshirilgan meta-tahlil natijalari esa virtual reallik va virtual laboratoriyalar o'quvchilarning kognitiv jarayonlarini faollashtirishi hamda murakkab biologik tushunchalarni o'zlashtirishni yengillashtirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Virtual laboratoriyalardan foydalanishga bo'lgan munosabat Penn va Mavuru tomonidan 2020-yilda olib borilgan tadqiqotlarda ham o'rganilgan bo'lib, mualliflar virtual laboratoriyalar hayot haqidagi fanlarni o'qitishda ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlaganlar. Zacharia va Olympiou tadqiqotlarida esa virtual va an'anaviy tajribalarni taqqoslash orqali virtual muhitda o'tkazilgan eksperimentlar o'quvchilarning tushunish darajasi va faolligini




oshirishi isbotlangan. O'zbekiston sharoitida esa Turakulova, Ruzikulova va Allanazarova tomonidan 2025-yilda olib borilgan tadqiqot virtual laboratoriyalarni umumta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitishga joriy etish imkoniyatlari va samaradorligini amaliy jihatdan asoslab bergan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot umumta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanishning ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda pedagogik tajriba-sinov, taqqoslash hamda statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot 2025–2026-o'quv yili davomida Samarqand viloyati Toyloq tumani 51-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchilari ishtirokida amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlarida jami 38 nafar 7-sinf o'quvchisi qatnashdi. O'quvchilar teng sharoitni ta'minlash maqsadida 19 nafardan ikki guruhga – tajriba guruhi va nazorat guruhiga ajratildi. Guruhlar o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasi, dars soati hamda o'quv dasturi jihatidan o'zaro tenglashtirildi. Tadqiqot boshida o'quvchilarning biologiya fanidan boshlang'ich bilim darajasini aniqlash maqsadida pre-test o'tkazildi. Tajriba guruhi bilan biologiya fanining laboratoriya mashg'ulotlari virtual laboratoriyalar asosida, nazorat guruhi bilan esa an'anaviy laboratoriya mashg'ulotlari asosida tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlari 4 hafta davomida olib borildi.

Tajriba jarayonida 7-sinf biologiya fanining quyidagi mavzulari virtual laboratoriyalar yordamida o'qitildi: "Laboratoriya jihozlari bilan tanishish", "Yomg'ir chuvalchangining ichki va tashqi tuzilishi bilan tanishish", "Piyoz po'sti hujayrasining tuzilishini mikroskop ostida kuzatish", "O'simliklarda moddalar transportini o'rganish", "Bargda organik moddalarning hosil bo'lishini o'rganish" hamda "Tufelka infuzoriyasining harakatlanishini kuzatish" (1-rasm). Ushbu mavzular o'quvchilarning amaliy tajriba asosida bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan holda tashkil etildi.



1-rasm: 7-sinf o'quvchilari uchun biologiya fanidan virtual laboratoriyalar platformasi

Tajriba-sinov ishlari yakunida o'quvchilarning bilim darajasidagi o'zgarishlarni aniqlash maqsadida post-test o'tkazildi. Pre-test va post-test natijalari asosida tajriba hamda nazorat guruhlar o'rtasidagi bilim ko'rsatkichlari solishtirildi. Olingan natijalarni qayta ishlashda foiz ko'rsatkichlari va taqqoslash tahlilidan foydalanildi hamda virtual laboratoriyalardan foydalanishning biologiya fanini o'qitishdagi samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida virtual laboratoriyalardan foydalanishning 7-sinf o'quvchilarning biologiya fanidan bilim darajasiga ta'siri pre-test va post-test natijalari asosida tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishlari boshlanishidan oldin o'tkazilgan pre-test natijalari tajriba guruhi va nazorat guruhi o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasi deyarli teng ekanligini ko'rsatdi. Bu holat tajriba natijalarining ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tajriba-sinov ishlari yakunida o'tkazilgan post-test natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi o'quvchilarning biologiya fanidan bilim ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgan. Xususan, virtual laboratoriyalar asosida tashkil etilgan darslar natijasida o'quvchilar mavzularni chuqurroq anglash, biologik jarayonlarni tasavvur qilish hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda yuqori natijalarga erishdilar. Nazorat guruhida ham ma'lum darajada ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa-da, tajriba guruhi natijalari bilan solishtirilganda bu ko'rsatkichlar pastroq ekanligi aniqlandi (1-jadval).



1-jadval: Tajriba va nazorat guruhlari bo'yicha pre-test va post-test natijalari¹

Guruh nomi	O'quvchilar soni	Pre-test (o'rtacha, %)	Post-test (o'rtacha, %)	O'sish darajasi (%)
Tajriba guruhi	19 nafar	52 %	81 %	+29 %
Nazorat guruhi	19 nafar	51 %	63 %	+12 %

Natijalar shuni ko'rsatadiki, virtual laboratoriyalar o'quvchilarning faolligini oshirish, dars jarayonida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda biologiya faniga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhi va nazorat guruhi o'quvchilarining boshlang'ich bilim darajasi (pre-test natijalari) deyarli teng bo'lgan. Bu holat tajriba-sinov ishlarining obyektiv va ishonchli tashkil etilganligini tasdiqlaydi.

Post-test natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi o'quvchilarining biologiya fanidan bilim darajasi 29 % ga oshgan, nazorat guruhida esa ushbu ko'rsatkich 12 % ni tashkil etgan. Tajriba guruhi natijalaridagi sezilarli o'sish biologiya fanini o'qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanishning yuqori samaradorligini ko'rsatadi.

Tajriba guruhi o'quvchilarida bilim ko'rsatkichlarining keskin oshishi virtual laboratoriyalar orqali murakkab biologik jarayonlarni vizual va interaktiv tarzda o'rganish imkoniyati bilan izohlanadi. Nazorat guruhida an'anaviy usullar asosida tashkil etilgan darslar natijasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa-da, ularning samaradorligi tajriba guruhi bilan solishtirilganda pastroq bo'ldi.

Olingan natijalar virtual laboratoriyalar biologiya fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda samarali pedagogik vosita ekanligini hamda o'quvchilarning bilim darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot 7-sinf biologiya fanini o'qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanishning ta'lim samaradorligiga ta'sirini o'rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, virtual laboratoriyalar asosida tashkil etilgan laboratoriya mashg'ulotlari o'quvchilarning biologiya faniga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mavzularni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi. Pre-test va post-test natijalari asosida tajriba guruhi o'quvchilarining bilim darajasi nazorat guruhi bilan solishtirilganda sezilarli darajada oshganligi aniqlandi.

Tadqiqotdan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Virtual laboratoriyalar o'quvchilarning mustaqil fikrlash, eksperiment o'tkazish hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.
2. 7-sinf biologiya fanida virtual laboratoriyalardan foydalanish o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.
3. Olingan natijalar pedagogik amaliyotda virtual laboratoriyalarni keng joriy etish imkoniyatini ilmiy jihatdan asoslaydi.
4. Tadqiqot natijalari biologiya o'qituvchilari, metodistlar hamda ta'lim sohasidagi tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, raqamli ta'lim vositalarini dars jarayonida samarali qo'llashga yo'naltirilgan tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizah, N., & Aloysius, S. (2021). The effects of virtual laboratory on biology learning achievement: A literature review. *Advances in Social Science, Education and Humanities Research*. <https://doi.org/10.2991/assehr.k.210326.015>
2. Byukusenge, C., Nsanganwimana, F., & Tarmo, A. P. (2022). Effectiveness of virtual laboratories in teaching and learning biology: A review of literature. *International Journal of Learning, Teaching and Educational Research*, 21(6), 1–17. <https://doi.org/10.26803/ijlter.21.6.1>
3. Makransky, G., & Mayer, R. E. (2022). Benefits of virtual reality in education: A meta-analysis. *Educational Psychology Review*, 34(3), 1593–1625. <https://doi.org/10.1007/s10648-022-09657-9>
4. Penn, M., & Mavuru, L. (2020). Assessing pre-service teachers' reception and attitudes towards virtual laboratory experiments in life sciences. *Journal of Baltic Science Education*, 19(6A), 1092–1105. <https://doi.org/10.33225/jbse/20.19.1092>
5. Turakulova, M., Ruzikulova, N., & Allanazarova, N. (2025). Creation of virtual laboratories in biology for 5th-class students of Uzbekistan general education schools. *International Journal of Information and Education Technology*, 15(4), 820–827. <https://doi.org/10.18178/ijiet.2025.15.4.2288>
6. Zacharia, Z. C., & Olympiou, G. (2011). Physical versus virtual manipulative experimentation in physics learning. *Learning and Instruction*, 21(3), 317–331. <https://doi.org/10.1016/j.learninstruc.2010.03.001>

¹ Izoh: Foiz ko'rsatkichlari o'quvchilarning test topshiriqlarini bajarish natijalariga asoslangan

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.